ZAMONAVIY JAMIYATDA AXLOQIY QADRIYATLARNING INQIROZI

Alijonov Muslimbek
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
v.b.dotsenti, t.f.f.d., PhD,
Email: muslimbek@uwed.uz,
Ergasheva Gulshoda
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining
“Siyosatshunoslik” yo’nalishining 1-bosqich talabasi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada hozirgi kunda zamonaviy hayotda axloqiy qadriyatlarning ahamiyati, qanday sabablarga ko‘ra inqirozga yuz tutayotganligi falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada axloqiy qadriyatlarning insonlar hayotidagi o‘rni, shu bilan birga globallashuv, texnologik taraqqiyot hamda iqtisodiy inqirozlar natijasida yuzaga kelayotgan muammolar bevosita yoritilib beriladi. Shuningdek, ushbu muammolarga yechimlar va tadqiqotlar davomida axloqiy qadriyatlarning saqlab qolish va insonlarning hayotida qanchalik muhim rol o‘ynashini asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *axloq, qadriyatlar, globallashuv, texnologik taraqqiyot, individuallizm, ma’naviy me’yorlar, ijtimoiy tarmoqlar.*

Annotation. *This article philosophically analyzes the importance of moral values in modern life and the reasons why they are experiencing a crisis today. The article examines the role of moral values in human life. In addition, it highlights the problems that arise as a result of globalization, technological development and economic crises. The study also proposes possible solutions*

to these problems and based on research, substantiates the importance of preserving moral values and their significance role in people's life.

Keywords: *morality, values, globalization, technological progress, individualism, moral norms, social networks.*

Аннотация. *В данной статье философски анализируется значение нравственных ценностей в современной жизни, а также причины их кризиса в современном обществе. В статье рассматривается роль нравственных ценностей в жизни людей. Кроме того, освещаются проблемы, возникающие в результате глобализации, технологического развития и экономических кризисов. Также предлагаются возможные решения данных проблем и на основе проведённых исследований обосновывается важность сохранения нравственных ценностей и их значительная роль в жизни человека.*

Ключевые слова: *мораль, ценности, глобализация, технологический прогресс, индивидуализм, нравственные нормы, социальные сети.*

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti inson hayotining ko‘plab jabhalarida sezilarli darajadagi o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, globallashuv hamda ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi insonlarning dunyoqarashi va qadriyatlariga yuksak darajada ta’sir o‘tkazmoqda. Ayniqsa, axloqiy qadriyatlar masalasi bugungi kunda dolzarb muammolarga aylanib bormoqda va bu muammoni hal qilish ham jamiyatning asosiy muammosiga aylanmoqda, chunki hozirda jamiyat barqarorligi, insonlar o‘rtasidagi hurmat va ishonch ko‘p jihatdan ushbu tamoyilga borib taqalmoqda.

Axloqiy xulq-atvor (odob-axloq, yaxshi xulq, ma'naviy tarbiya) - jamiyat ma'naviy hayotidagi muhim ijtimoiy hodisa hisoblanib, odob-axloq tizimini, axloqiy fazilatatlarning inson xatti-harakatlarida aks etishini anglatuvchi tushuncha. Bu me'yorlar odatda jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar, diniy e'tiqodlar va madaniy an'analarga asoslanadi. Axloqiy qadriyatlarning asosiy vazifasi insonlarning bir-biri bilan munosabatlarini tartibga solish va ularni ijtimoiy hayotning ijobiy va barqaror rivojlanishiga yo'naltirishidir. Undan tashqari axloqiy qadriyatlar jamiyatda tartibni saqlashda yordam beradi. Uning ahamiyatiga keladigan bo'lsak, mazkur qadriyatlar turli madaniyatlarda va davlatlarda turlicha ahamiyatga ega. Misol uchun, Yaponiyada axloqiy xulq-atvor qadriyatlari "wa" (jamoaviy birdamlik) va "giri" (burch) tushunchalari orqali namoyon bo'ladi, bu jamiyatda insonlar o'rtasida hurmat va o'zaro yordamni mustahkamlaydi. Hindistonda esa axloqiy xulq-atvor Vedalar va Upanishadlar ta'limoti orqali ifodalanib, jamiyat va oilada adolat, hurmat va to'g'rilik tamoyillariga amal qilinadi.

Axloqiy qadriyatlarning jamiyatdagi o'rni muhimligiga qaramasdan bugungi kunda ko'plab sabablarga ko'ra inqirozga yuz tutmoqda. Bunga ilk sabalardan biri individuallizmning kuchayishi, ya'ni zamonaviy hayotimizda insonlar shaxsiy manfaatlarini jamiyat manfaatlaridan ustun bilmoqda. Bugungi kunda jamiyatda moddiy boylik va iqtisodiy muvaffaqiyat ko'pincha ma'naviy boyliklardan ustun ko'rilmoqda, natijada halollik, poklik, vijdon va adolat kabi tamoyillar ikkinchi darajaga tushib qolmoqda. Bu esa insonlar o'rtasida ishonch va hurmat yo'qolishiga sabab bo'lmoqda. Ikkinchi sababi bu - globallashuv jarayonining kuchayishi. Chunki globallashuv natijasida turli madaniyatlar va qadriyatlar o'zaro qo'shilib boriladi. Bu bir tarafdan juda yaxshi, negaki, u insonlarning dunyoqarashini kengaytirishi bilan bir qatorda madaniyatlar almashinuvini kuchaytiradi. Ammo boshqa tomondan qaraydigan

bo‘lsak, ba’zi bir axloqiy qadriyatlar, an’analarning zaiflashuviga olib kelishi mumkin. Chunki madaniyatlar o‘zaro qo‘shilishi orqali keladigan moddiy boyliklar, mashxurlik va shaxsiy manfaatlar yana ma’naviy qadriyatlardan ustun qo‘yila boshlanadi. Natijada jamiyatda halollik, vijdon, hurmat va ishonch kabi qadriyatlarga nisbatan e’tibor susayadi. Undan tashqari ijtimoiy tarmoqlarning kengayishi va raqamli platformalarning hayotimizga chuqur kirib kelishi zamonaviy jamiyatda axloqiy qadriyatlarning o‘zgarishiga bevosita o‘z hissasini qo‘shmoqda. Chunki ba’zi bir holatlarga ko‘ra platformalarda turli xil yuzaki qadriyatlar, mashxurlik, moddiy boyliklar targ‘ib qilinib, yoshlarning ongini zaharlamoqda va bu esa yoshlar ongida axloqiy qadriyatlar tizimining o‘zgarishiga olib kelmoqda.

Zamonaviy hayotda axloqiy qadriyatlarning inqirozi qanchalik dolzarb muammoga aylanib bormasin, ushbu muammoni bartaraf etish yo‘llari kundan kunga ortib bormoqda. Avvalo, ushbu muammoni ozgina bo‘lsa-da hal qiladigan yo‘l bu - ta’lim tizimida axloqiy tarbiyani kuchaytirish demakdir, ya’ni jamiyatda axloqiy qadriyatlarni saqlab qolishning eng asosiy yo‘llaridan biri ta’lim tizimi hisoblanadi. Maktablarda va oliy ta’limlarda nafaqat bilim berish, balki ta’lim bilan bir qatorda axloqiy tarbiya berishga alohida e’tibor qaratish lozim. Yoshlarga kichikligidan halollik, vijdon, mas’uliyat va hurmat nima ekanligini o‘rgatish jamiyatning ma’naviy rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Yoshlar ongida axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda oila instituti ham muhim rol o‘ynaydi. Chunki insonning birinchi dunyoqarashi, xulq-atvori va axloqiy tamoyillari oilada shakllanadi va bunda ota-onaning roli juda muhim. Chunki farzandlar har doim ko‘p narsani ota-onlaridan o‘rganishadi, misol uchun, ota-onalarning ularga bo‘lgan munosabati, ota-onasining kundalik xatti-harakatlariga xuddi taqlid qilishadi. Bu shuni ko‘rsatadiki, ota-ona qanday bo‘lsa farzand ham shunday ulg‘ayadi, yaxshi bo‘lsa yaxshi, yomon bo‘lsa

yomon. Shu sababdan ota-onalar, avvalo, o'z farzandlariga to'g'ri o'rnak bo'lgan holda farzandlariga to'g'ri tarbiya berib, ularga halollik, vijdon, yolg'on gapirmaslik va shu kabi fazilatlarni o'rgatishi lozim. Negaki, farzand har doim birinchi ta'limni uydan oladi. Agar u kichikligidan to'g'ri tarbiya olsa, u keyinchalik ham shu tarbiyaga amal qiladi. Axloqiy qadriyatlarni saqlab qolishning yana bir asosiy yo'llaridan biri - madaniy va milliy an'analarini saqlab qolish. Har bir jamiyatning o'ziga xos an'anasi, qadriyati va urf-odatlari bo'ladi, ushbu qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazib berish insonlar o'rtasida hamjihatlik, mehr-oqibat, bag'rikenglik va mas'uliyat kabi axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga yordam beradi. Ota-onalar va ta'lim muassasalari hamda jamiyatning boshqa bir ijtimoiy institutlari yoshlarni aynan mana shunday milliy an'analar ruhida tarbiyalashi lozim.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, axloqiy qadriyatlar inson hayoti va jamiyat hayoti uchun juda muhim rol o'ynaydi. U insonlarning to'g'ri qaror qabul qilishiga va shu bilan birga insonlar o'rtasidagi munosabatlarda ishonch va hurmat bo'lishini ta'minlaydi, shuningdek, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni saqlashda ham o'z hissasini qo'shadi. Axloqiy qadriyatlar ya'ni halollik, poklik, vijdon va shu kabi fazilatlar insonni ma'navy jihatdan tarbiyalaydi, shuning uchun ular nafaqat shaxsiy hayotimizda, balki jamiyat rivojlanishi va barqarorligi uchun ham zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Yaponiyada axloqiy qadriyatlar". (2020). Osiyo jamiyatshunoslik tadqiqotlari jurnali.
2. https://uz.fashionrebelsbook.com/17175404-moral-norms-values-and-rules